



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



2024-yil 21-may, seshanba,  
60 (23.937)-son

**KUN  
HIKMATI**  
Yozmaslik -  
kamchilik,  
o'qimaslik -  
ayb

# Zarafshon

www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> @zarnews\_uz [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

17-19-may kunlari yurtimizda  
rasmiy tashrifini amalga oshirgan  
Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim  
18-may kuni Samarqandda  
bo'ldi.

Oliy martabali mehmon mamlakatimiz  
hukumi rahbarlari bilan birgalikda  
O'zbekiston – Malayziya tadbirdorlar  
bizes forumida qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri  
o'rinosi J.Xo'jayev keyingi yillarda davlatimizning Malayziya bilan savdo-iqtisodiy  
aloqalari mustahkmlanib borayotgani,  
ushbu tashrif esa hamkorlikni yanada  
kengaytarishga xizmat qilishini ta'kidladi.  
Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga  
oshirilgan islohotlar natijasida qulay  
investitsiya muhitni yaratilgani, qonunchilik  
takomillashayotgani va iqtisodiyoti erkin  
lashtirilish borasida faol siyosat yuritilayot  
ganini qayd etdi.

Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim  
forumda so'zga chiqib, avvalo O'zbekistonga  
diplomatik delegatsiya sifatida  
emas, do'st sifatida kelganini alohida  
ta'kidladi.

— O'zbekiston Prezidenti va hukumat  
rahbarlarining mamlakatdagi iqtisodiy  
islohotlar haqidagi fikrlaridan biz shun  
xulosaga keldikki, O'zbekiston bilan  
hamkorlikda ishslash mumkin,— dedi Anvar  
Ibrohim. — Jumladan, energetik, raqamli  
texnologiyalar, turizm yo'naliishlarda ham  
korligimiz istiqbolli bo'lishiga ishonamiz.  
Men O'zbekiston Prezidenti va hukumat  
rahbarlari bilan suhabat chog'ida ularda  
mamlakatni rivojlantirishga faol intilish  
borligini ko'rdim va buni olqishlayman.

## Malayziya Bosh vaziri Samarqandni ziyorat qildi



Malayziya Bosh vaziri buyuk muhaddis  
Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qildi.  
Qur'on oyatlari o'qilib, ulug' muhaddis  
haqiga duolar qilindi.

Oliy martabali mehmonga Prezident  
Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mazkur  
inshootda amalga oshirayotgan ukan bun  
yodkorlik ishlari haqida ma'lumot berildi.

Shundan so'ng Malayziya hukumi  
rahbari Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tad  
qiqot markazida bo'lib, markaz faoliyati,  
bu yerda olib borayotgan tadqiqot  
ishlari bilan tanishdi. Anvar Ibrohimga  
markaz olimlari tomonidan nashrga  
tayyorlangan Imom Buxoriyning asarlari  
sovga'a qilindi.

Malayziya Bosh vaziri Samarqanddag  
boshqa muqaddas qadamjo va obidalar  
ni ham ziyorat qildi. Dunyoga mashhur  
Registon majmuasini tomosha qilar  
ekan, Anvar Ibrohim bu yerdagi mad  
rasalar Samarqand zaminining azaldan  
ilm-ma'rifikat, madaniyat markazi bo'lgan  
ligini e'tirof etdi.

## Baxshilar yana Qo'shrabotda uchrashadigan bo'ldi

Joriy yilning 17-18-may kunlari  
Qo'shrabotda "Ergash Jumanbulbul o'g'li  
ijodi va Qo'rg'on dostonchilik makte  
bi adabiy merosining Yangi O'zbekiston  
ma'nnaviy-madaniy tarraqqiyotidagi o'rni"  
mavzusida xalqaro konferensiya hamda  
Respublika baxshilar tanlovi tashkil etildi.

Tumanda ilk bor o'tkazilgan mazkur nufuzli tadbir  
da tanqli baxshilar, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston,  
Tojikistonda baxshichilik yo'naliishi rivojiga hissa qo'shib  
kelayotgan olimlar, shoir va yozuvchilar, madaniyat  
xodimlari, jamoatchilik vakillari ishtiroy etdi.

Tadbirdirning ochilish marosimi Ergash Jumanbulbul  
o'g'li muzeysi majmuasida tashkil etildi.

- Keyingi paytlarda e'tiborsiz qolib, unutilayotgan  
baxshichilik san'atini saqlab qolish, uni kelgusi avlodga  
yetkazish maqsadida O'zbekistonda amalga oshirayot  
gan ishlari tahsinga loyiq, - dedi Turkiyaning Egey  
universiteti professori Selami Fidakar. - Olis qishloq  
da xalq baxshisi Ergash Jumanbulbul o'g'li xotirasiga  
bag'ishlab bunyod etilgan majmua va bu yerda o'tkazi  
layotgan nufuzli xalqaro tadbir so'zimizga yorqin misol  
bo'la. Xorijiy davlatlardan kelgan, ushbu yo'naliishi  
ilmiy izlanishlara olib borayotgan olimlar, folklorshunoslar  
uchrashuvi, ular ishtiroyidagi ilmiy konferentsiya ham  
baxshichilik san'ati rivoji uchun xizmat qilishi tabiiy.



- Yurtimizda noyob madaniy merosimizni o'rganish,  
bebaho an'analarini targ'ib qilish va rivojlantirishga keng  
sharoitlar yaratilmoqda, - deydi professor Shomirza  
Turdimov. - Xalqaro konferentsiyada o'zbek xalq dos  
tonlari, ularning mazmun-mohiyati haqida ilmiy xulosalar  
bildirildi. Baxshichilikni yosh avlodga meros qoldirish  
muhim ekanligi, bugungidek tadbirlarni ko'proq tashkil  
etish lozimligi aytildi.

"Qo'shrabot navosi" nomli baxshilar tanlovi 7 yosh-



dan 18 yoshgacha va undan kattalar o'rtasida tashkil  
etildi. Tanlovda mamlakatimizning turli hududlaridan  
kelgan 100 nafarga yaqin baxshilar o'z mahoratinini  
sinovdan o'tkazdi. Tanlov ishtiroychilarining aksariyati  
yoshlar ekanligi, xususan, ular orasida qizlarning ham  
borligi alohida ahamiyatiga ega.

- Shu tanlovda qatnashish uchun Qoraqalpog'is  
tondon keldik, - deydi Gulnazxon O'tepbergenova. -  
Tayyorgarlik jarayonida Ergash bobomizning hayoti va  
ijodi bilan yaqindan tanishdim. Termalar va dostonlari  
dan parchalar yod oldim. Harakatlarim natijasida tanlov  
g'oliblaridan biriga aylanib, respublikada eng yaxshi  
baxshilar qatoridan joy egalladim.

Qo'rg'on qishlog'i va bu yerdagi so'lim majmua  
ikki kun davomida bayram og'ushida bo'ldi. Tadbirdir  
ning birinchi kunida tanlov yakuniga yetgan bo'lsa-da,  
baxshilarning hududni tark etgisi kelmadи. Majmuada  
o'rnatilgan o'tov va so'rilarda suhbatlar, aytishuvlar  
yarini tungacha davom etdi. Ikkinci kun ham erta  
tongdan Qo'rg'onda, shuningdek, tog'lar bag'ridagi  
Pangat qishlog'ida xalq sayllari tashkil etildi. Folklor  
ansambllari chiqishlari, mushoira, hunarmandlar  
mahsulotlari ko'rgazmasi va boshqa madaniy-ma'rifik  
tadbirdilar o'tkazildi.

Ahamiyatli, ikki kun davomida Qo'shrabotning qaysi  
hududida qanday tadbir bo'lmisin, baxshilar ishtiroykisiz  
o'tmadi. Qoratosh qishlog'ida uloq-ko'pkari musobaqasi  
tashkil etildi. Unda 100 dan ziyod chavandozlar ishtiroy  
etdi. Bu yerda ham baxshilar termalar kuyladi va bunga  
hamohang tarzda polvonlar ot choptirdi.

Ikkinci kun kechki payt tuman markazidagi futbol  
o'yingohida tashkil etilgan gala-kontsert tadbiriga  
yakun yasadi. Taniqli san'atkorlarning chiqishi, kontsert  
so'ngida mushaklar otishli qo'shrabotliklari va meh  
monlarga bayramona kayfiyat bag'ishlidi. Shundan  
so'ng baxshilar va olimlar bir piyola choy ustida suhabat  
qurib, yana ikki yıldan so'ng Qo'rg'onda uchrashishni  
niyat qildilar.

To'iqin SIDDIQOV,  
Bobur MAMADIYOROV (foto).



**Samarkand shahar**  
Davlat xizmatlari markazida  
bir kunda fuqarolarga 1 350 ta  
masala bo'yicha xizmat ko'satildi  
va 570 dan ortiq murojaat  
subsidiya olishga oid bo'ldi.

**Bulung'ur tumani**  
markazida maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tashab  
busi bilan "Kitob bekati" nomli  
kutubxona tashkil etildi.

**Ishtixon tumani** ma  
hallari yettiligi faoliyati,  
aholi tomorqalari, ijtimoiy  
soha obyektlarida ta'lim va  
tibbiy xizmat ko'satish sifati  
iqtisodiyot va moliya vazirli  
gi ishchi guruhi tomonidan  
o'rganilmoqda.

**Urgut tumanida g'al  
la o'rim-yig'im ishlari uchun**  
8 ta kombayn, mahsulotlarni  
don qabul qilish maskanlariga  
olib boruvchi 120 dan ortiq  
yuk mashinalari shay holatga  
keltirildi.

**Narpay tumani** sport  
maksi taraflari o'quv  
chilar K.Abdusaidova, A.Ob  
ro'yev, M.Boymanovlar  
Toshkent shahrida o'tkazilgan  
Paraosyo o'yinlariga saralash  
musobaqasida g'olib bo'lib,  
2025-yilgi Paraosyo o'yinlari  
da qatnashish imkoniyatini  
qo'lg'a kiritdi.

**Nurobod tumanida "In  
son" ijtimoiy xizmatlar bo'limi  
ning yangi binosi foydalanishga**  
topshirildi.

**Oqdaryo tumani** Xoldor  
qishlog'ining 4 kilometrdan  
ortiq ichki tuproq yo'llariga tosh  
to'kilmoqda.

**Payariq tumanidagi**  
"Navbahor", "Aliobod", "Bahor"  
va "Qirqovul" mahalla fuqaro  
lar yig'lnari yangi binoga ega  
bo'ldi.

**Pastdarg'omlik** O.Ab  
dullaev Qoraqalpog'istondagi  
o'tkazilgan "Bo'zatov Fest"  
- "Yoshlar ovozi" tanlovingin  
respublika bosqichi 3-o'rinni  
qo'lg'a kiritdi.

**Toyoq tumani** tele  
kommunikatsiyalar bog'lamasi  
boshlig'i O.Mutavalliyeving  
ta'kidlashicha, yil yakuniga  
qadar tumanda 305 kilometr  
optik tolali aloqa tarmoqlari  
tortiladi.

## Siyosiy imtihonlarga qanday tayyorgarlik ko'rilyapti?

Joriy yil xalq noiblari saylanishi kutilyapti. Bu jarayonda nomzodlar faqat siyosiy partiyalaridan ko'rsatilishini hisobga olib, bu tuzilmalarning viloyat kengashi raislariga bir necha savollar bilan murojaat qildik.

**Suhbatdoshimiz "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat kengashi raisi Akbar AXTAMOV.**



datidan oldin chaqirib olish amaliyoti qo'llanilmadi. Chunki ularning bar-chasi partiya bilan yaqin hamkorlikda, o'zlarini saylangan hududlarda imkoniyati darajasida ish olib borishyapti.

Endi deputatning partiya bilan mustahkam aloqa o'rnatmayotgani kelsak, ehtimol bizning qonunchilikimizdagi ayrim bo'shiqliqar bunga sabab bo'layotgandir. Masalan, qonunchilikimizda partiya a'zo bo'imgan fuqarolar ham siyosiy partiyalar deputatlikka nomzod qilib ko'rsatishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Axir partiya bilan yaqin aloqada bo'imgan, uning maqsad va vazifalarini yaxshi bilmagan, saylovoldi platformasidan bexabar odam qanday qilib saylovdan so'ng partiya bilan birdan yaqin bo'lishi, hamkorlikda ish olib borishi mumkin? Ehtimol, shu narsa aloqaning uzilishiga olib kelayotgandir. Bu albatta, shaxsий fikrim. Bilmadim, boshqalar bu holatni qanday, nima bilan izohlaydi?

**- Umuman, joriy yilgi saylovlar o'tgan safargilardan tubdan farq qilishi tabiiy. Mojaritar saylov, hokimlar endi mahalliy Kengashlarga rais bo'lmasligi kabi k'o'plab omillar bunga sabab bo'lishi shubhasiz. Bunday sharoitda partiyaning siz rahbarlik qilayotgan viloyat kengashi siyosiy imtihonlarga qay darajada tayyorgarlik ko'rmoqda?**

- Darhaqiqat qonunchilikimizga muvoqiq, joriy yilda mamlakatimizda bo'lib o'tadigan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovini yangicha tartibda, ya'ni Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra aralash (majoritar, proporsional) saylov tizimi asosida o'tkazish nazarda tutilmogda.

Ayni paytda joylarda partiya faollari va deputatlarni tomonidan yangizimizda tarkibini qo'shib berilganda.

Saylovchilar yurtimizdagagi 5 ta siyosiy partiyaning saylovildasturi bilan yaqindan tanishib chiqqach, o'zlariga manzur bo'lgan siyosiy kuchning nomzodlari uchun ovoz berib, ularni qo'llab-quvvatlaydi. O'laymanki, partiya viloyat kengashining bu boradagi natijalari yomon bo'lmaydi, biz oldingi safardan joy olishimiz uchun bor imkoniyatimizni safarbar etamiz.

Zotan, saylovchilar nomzodlarimiz va partiyamizga ovoz berib, mamlakatni taraqqiy ettrishning eng hayotiy yo'lini tanlashiga ishonaman. Mamlakat taqdiri uchun jon kuydirgan har qanday inson agar dasturlarimiz bilan yaqindan tanishsha, "Axir bu mening g'oyalaram-ku, mening partiym shu ekan" deyishiga shubha yo'q.

**- Saylov haqida gap ketarkan, tabiiyki, jarayonlar oldidan partiyalar beixtiyor faollashadi. Ayting-chi, ana shu jo'shqilnikni saqlab qolish mumkinmi?**

- Nima uchundur yurdoshlarimizning aksariyati shu fikri bildirishadi. Lekin men bunday deb o'yalmayman. Chunki siyosiy partiyalar saylovda ham, saylovdan keyin ham bir marmoda ish olib borishadi. Partiyalar saylov payti faollashadi, undan keyin ularning harakati susayib qoladi, dejan qarash matlqa noto'g'i.

Bunday qarashning shakllanishi fuqarolardagi yondashuv sabab, deb o'layman. Negaki, saylov jarayonlari boshlangach fuqarolarning siyosiy faoliigi oshib, partiyalarini

### Partiyalar hayoti

kuzata boshlaydi. Saylovdan keyin esa ulardagani ana shu faoliyat susayib, partiyalar faoliyatini kuzatmay qo'yadi. Oqibatda yuqoridagidek fikr paydo bo'ladi.

Umuman, har bir siyosiy partiyining jamiyatdagi mavqe, nufuzini saylov jarayoni belgilab beradi. O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi ham joriy yilning oktabr oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga bo'lib o'tadigan saylovlarda g'alaba ozonish uchun astoydil intilmoqda.

Partiyamiz o'tgan 5 yil mobaynida xalqimizga yanada yaqin bo'lishga, deputatlarimiz saylovchilar ishchoni ni qozonishga harakat qildi. Buning uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga deputatlar aholi bilan ko'proq sayyor qabullari o'tkazib, ularning dardini tingladi, imkon qadar muammolarini yechishga harakat qildi. Bu esa aholining partiyaga, deputatlarga bo'lgan ishchoni yanada mustahkamadi, deb o'layman.

**- Yaqinda o'tkazilgan tadbirda partiya yetakchilaridan biri "Biz saylov vaqt raqobatlashganimiz bilan maqsadimiz bir, ya'ni ham-mamiz viloyatni rivojlantirish, aholi turmushni farovon bo'lishi istaymiz", dedi. Bu partiya yetakchilari ham o'zaro raqobatga tuyor emasligini ko'rsatmaydimi?**

- To'g'ri, partiyalar o'tasidagi raqobat naqafti bizda, balki butun dunyo tajribasidan ham kelib chiqib aytilish mumkinli ko'proq saylovlarda kuzatiladi. Boshqa paytlari deyarli ko'zga tashlamaydi. Chunki aynan shu jarayonda partiyalar hokimiyat uchun kurash olib borishadi. Boshqa paytlari esa o'z dasturiy maqsad va vazifalari ijsorisini ta'minlash, elektorati manfaatlarini himoya qilish, yurtimizda kechayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashadi.

**- Partiyaning siz rahbarlik qilayotgan viloyat kengashi, uning deputatlar faoliyatini 10 ballik tizimda nechaga baholaysiz?**

- Inson hech qachon o'zining ishiga o'zi baho bermaydi. Uhing faoliyatiga atrofdagilar, xalq baho beradi. Partiyamiz va deputatlarimizning qanday ish olib borayotgani, saylovchilarining ishchoni nechog'i lozona olsani shu yilning oktabr oyida bo'lib o'tadigan saylovlarda yaqqol ko'rindi. Siyosiy jarayonning yakuniy natijalariga qarab o'z faoliyatimizga, ishchimizga baho bersak, menimcha to'g'ri bo'ladi.

**- Jamiatyayotida o'z o'rni ni mustahkamish uchun partiya viloyat kengashining rejalarini qanday?**

- Kezi kelganda bir narsani alohida ta'kidlab o'tishim kerak, davlatimiz rahbari 2021-yilning 2-fevral kuni siyosiy partiyalar bilan o'tkazgan uchrashevdu yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xalqimiz huquq va manfaatlarini himoya qilishda siyosiy partiyalarining o'rnini katta ekanligiga urg'u berib, hududlarni kompleks rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandigini ta'minlash bo'yicha ishlash chiqilgan keng qamrovli dasturlari ijsorisini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va mahalliy Kengashlarning deputatlaridan fidoyilik hamda mas'uliyat talab qilishini bildirgandi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar o'z deputatlar orqali joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammollarni o'rganishi, ularning yechimi bo'yicha takliflar berishi, ayniqsa, ta'sirchan parlament va jamoatchilarni nazoratini olib borishi mumlinligini qayd etgandi.

Shundan kelib chiqib, partiyamiz faollari, deputatlar ko'proq xalqning orasida bo'lishga, ularning dardini tinglashga, mavjud masalalarga yechim topishga, shu yo'l orqali odamlarni rozi qilishga astoydil harakat qilyapti.

O'z faoliyatini yangicha asosda tashkil etayotgan partiyamiz faollari, deputatlar va xalq deputatlar mahalliy Kengashlarning partiya deputatlik guruhlari Prezidentimizga qo'yanalab talablar, partiyaning dasturiy maqsad-vazifalari ijsorisini ta'minlashga jiddiy e'tibor qarataydi.

Bugun yurtimizda bir nechta siyosiy kuchlarning faoliyat ko'rsatayotgan jamiyatimizda sog'lom raqobatni vujudga keltirib, ularni saylovlarda chinakam kurashga chorlashi shubhasiz. "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi ham bu jarayonda faol ishtirok etib, el nazarida bo'lishga, chin ma'noda xalq partiyasiga aylanishga astoydil harakat qilmoqda.

**Yoqubjon MARQAYEV  
suhbatlashdi.**

**Maktabgacha ta'lif tashkilotlariida bolalar taomnomasi qanday tuziladi? Bolalar bog'chada qanday mahsulotlar iste'mol qiladi? Ushbu savollarga javob topish maqsadida Ishtixon tumanidagi ayrim maktabgacha ta'lif tashkilotlari bo'ldik.**

## Bog'chalar taomnomasi o'rganilishi kerak

- Bog'chamizda 75 nafr bolalar tarbiyalanyapti, - dedi "Umid g'unchalari" nodavlat maktabgacha ta'lif tashkiloti ta'sischisi Shahnoza Usmonova. - Nonushtaga sutli osh yoki kasha, choy, pechene beramiz. Tushlikka birinchisi suyuq ovqat, ikkinchisiga quyuq ovqat, shuningdek, non, salat, qatiq, meva beriladi. Ikkinchisi tushlikka choy, bulochka yoki pechene tortiladi.

Bog'cha 2019-yilda davlat xususiy-sheriklik asosida ochilgan. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun yetarli joy bo'imagani bois tez buziladigan mahsulotlar har kuni sotib olinadi. Sh.Usmonovaning aytishicha, bog'cha taomnomasini o'zlar mustaqil tuzadi, ammu kunlik taomlar ro'yxatini ko'rsata olmadi. Kunlik tayyorlanadigan taom turlari va bir tarbiyalanuvchi uchun taom miqdori yozib qo'yilmagan.

Bundan tashqari, ballonl gazdan oshxonaning ichiga qo'yan holda, xavfsizlik qoidaligiga amal qilmasdan foydalanimonqda.

Tumandagi 10-davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida 10 kunlik taomnomalar kelishilgan holda oldindan tuzilar ekan. Bog'chada oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash xonalari va muzlatkichlar yetarli. Shuning uchun muddati tez tuzilib, tasdiqlangan hamda Sanitariya-epidemiologik osyoishitalik va jamoat salomatligi xizmati bilan kelishilgan namunaviy, mavsumiy taomnomalar asosida tuziladi. Taomnomalar joriy kundagi tarbiyalanuvchilar sonidan kelib chiqib, keyingi ish kuni uchun hamshira tomonidan maktabgacha ta'lif tashkilotlari oshpazi va xo'jalik mudiri ishtirokida tuzilishi ko'rsatilgan. Vaholanki, bugun oilaviy bog'chalarda hamshira shtatining o'zi yo'q. Ishtixon tumanida 250 ta oilaviy bolalar bog'chasi bo'lsa, ularning hech birida hamshira shtati mavjud emas.

Kunlik tayyorlanadigan taom turlari va bir tarbiyalanuvchi uchun taom miqdori maxsus ovqat tarqatish joyiga yozib qo'yilishi ham mazkur qarorda ko'rsatilgan. Shunisi qiziqki, maktabgacha ta'lif tashkilotlari mas'ullarining bunday tartibdan xabari yo'q.

Viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasining ma'lumotiga ko'ra, tuman bo'limgan holda 80 gramdan tushishi yozilgan. Ammo bizning hisobimizda 15 kilogramm go'sht 240 nafr bolaga 62,5 gramdan to'g'ri keldi. Taomnomada umumiyyat summa, kunlik tayyorlanadigan taom turlari va bir tarbiyalanuvchi uchun taom miqdori ham yozilmagan.

Tumandagi "Happi children" nomli oilaviy bog'chada birinchi nonushta, ikkinchi nonushta, tushlik va ikkinchi tushlik berilarkan. Biz ikkinchi nonushtaga tayyorgarlik jarayoni usidan chiqqadi. Ota-onalarning iltimosiga ko'ra, ikkinchi nonushtaga bolalarga olma berilaydi.

Banan, mandarin kabi allergiya qo'zg'atuvchi mevalardan voz kechilidi. Bu bog'chada ham oziq-ovqat mahsulotlari har kuni sotib olinadi. Bolalarning har kunlik ovqati telegramdagagi ota-onalar guruhiga tashlanadi.

### OILAVIY BOG'CHA MAS'ULI HAM BIZGA KUNLIK TAOMNOMANI KO'RSATA OLADI

Metan shaharchasidagi "Sehri dunyo fayz" nodavlat maktabgacha ta'lif tashkiloti o'tgan yili qurilib, foydalinishga topshirilgan. Bog'chada oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olmaydi. Ammo yuqorida nomlari keltirilgan bog'chalarla oziq-ovqat mahsulotlari maktabgacha ta'lif tashkilotlari rahrbari tomonidan sotib olinaydi.

Demak, bunday tartib Ishtixon tumaniga hali yetib bormagan.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lif tashkilotida oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar sifatini o'rganishga bo'yicha brakeraj (mahsulot sifatiga qarorchi) komissiya bo'lishi kerak.

Ushbu komissiya raisi maktabgacha ta'lif tashkiloti hamshirasini bo'lib, uning tarkibiga tarbiyachi, oshpaz, tashkilot kasaba uyushmasi qo'mitasiga qarorli nomlari keltirilgan bog'chalarla oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar sifatini doimiy ravishda o'rganib boradi.

O'rganish natijalari alohida daftarlarda qayd etiladi. Xillas, qarorda tarbiyalanuvchilarini sog'lom ovqatlantirish bo'yicha barcha ko'rsatilalar berilgan.

Bugun maktabgacha ta'lif tashkilotlarda qamrovn oshirishga izchil kirishilgan bir paytda tarbiyalanuvchilarga xizmat ko'rsatilining pastligi kishini taajjublanitiradi.

**Xurshida ERNAZAROVA,  
"Zarafshon" muxbiri.**



**ASLIDA TARTIB QANDAY BO'LISHI KERAK?**

**O'zboshimchalik bilan o'zlashtirilgan yer o'ziga nasib etmadi**

**Yer - umummilliyl boylik. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanishi zarur va yer davlat tomonidan muhofaza qilinadi.**

"Ozagroinspeksiya"ning viloyat boshqarmasi tomonidan Past Darg'om tumani S.Mallayev massividagi "Alibobo" fermer xo'jaligi hisobidagi 0,1575 hektar sug'oriladigan yer maydoni qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqarilishi oqibatida davlat manfaatlariga 169 million 841 ming 613 so'm miqdorida zarar yetkazilgani aniqlandi. O'rganish jarayonida tumanning Do'stlik massividagi faoliyat olib borayotgan "Chortut" fermer xo'jaligi hisobida bo'lgan 0,25 hektar yer maydoni "Madaniy yurish" mahallasida yashovchi fuqaro A.G. tomonidan o'zboshimchalik bilan egallab olingani ma'lum bo'ldi. Qishloq xo'jaligida foydalilanidigan yer maydoniga uy-joy va beton poydevar qurib, yerni qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqarishi natijasida davlatga 48 million 807 ming 775 so'm miqdorida zarar yetkazilgan. Aniqlangan holatlar bo'yicha to'planan hijjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kiritildi.

**A.XOLBEKOV,**

**"Ozagroinspeksiya"ning viloyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i.**

Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari o'ttasida Finlandiya ta'limi afzalliklari keng yoyila boshladi. Negaki, asr boshida aynan shu mamlakatning 15 nafar o'quvchilar o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini baholash uchun mo'ljallangan Xalqaro o'quvchilarini baholash dasturi – PISAda eng yuqori ball olgani butun dunyoni hayratda qoldirgan. PISA natijalari sabab Finlandiya maktablarining ta'lim tizimi eng yaxshi deb tan olin-gach, dunyoning barcha qit'alara bu tajribalarni o'rganishga qiziqish ortdi.

Fin maktablaridagi muvaffaqiyat zamirida juda oddiy tamoyil – o'quv jayronlarida quvonch mavjudligini, qisqa o'quv kuni, yengil uy vazifalari va kam standartlashtirilgan testlар hamda ta'lim tizimining o'ziga xos tashkil etilgani, ta'lim oluvchi o'quvchilarning baholarini muhokama qilish kerakligi, ta'lim oluvchi o'quvchilarga ixtiyor erkinligini berish va ular bilan birgalikda kunni rejalashtirish o'quvchilarning mustaqil bo'lismiga qanday yordam berishi, devorladagi ko'rzaqmal materiallarning haddan tashqari ko'pligi o'zlashtirishning pasayishiga olib kelishi, nega tanaffus chog'ida o'qituvchi o'quvchi yoshlar bilan birga o'yashni, muloqotda bo'lishi kabi masalalarning o'ziga xos tarbiyaviy jihatlari borligi muhim.

Finlandiyada hozirgi ta'lim tizimi muvaffaqiyati XIX asr oxirida qabul qilin-gan qarorlar asosida yaratilgan. Unda belgilanganidek Finlandiya butun xalq ta'lim olishi kerak degan qarorga kelgan edi. Shu tarzda mamlakatda ma'lumotli elita va o'qimagan qatlama o'ttasida-i ijtimoiy tengsizlikka yo'l qo'yilmadi. Shu bilan finlarning o'rganishga bo'lgan ishtiyobi ham, ta'limga bo'lgan umumiyyat ishonchining ham tarqalishiga sabab bo'ldi.

Binobarin, Prezidentimizning "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni quradili, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir", deyishi bejiz emas. Har bir ota-onanining orzusi farzandlarini barkamol, yetuk inson qilib tarbiyalash, shunga da vat qilish butun insoniyatga tegishlidir. Barkamol inson boshqalarga o'nak bo'ladi, ularni o'z ortidan ergashtiradi. Bunday yoshlar jamiyatda qancha ko'p bo'lsa, jamiyat shuncha taraqqiy etidi, ilm-fan, madaniyat rivoj topadi.

Grigoriy Petrovning "Oq nilufarlar yur-tida" kitobida O'zbekiston va Finlandiya ta'limidagi farqlar quyidagicha ko'rsatilgan:

1. O'quv dasturi va darsliklar mamlakatimizda ta'limning asosiy qismi si-fatida qaraladi. Finlandiyada juda oddiy o'quv dasturi mavjud va ko'p ham o'zgar-maydi. O'qituvchilar o'zlarini o'qtildigan kitoblarini tanlaydilar, ammo darsliklar unchalik ko'p emas. Shunday qilib, Finlandiya ta'lim tizimida darsliklar asosiy qism bo'lishi u yoqda tursin, kerakli narsa ham emasligi ko'rsatilgan.

2. O'zbekistondagi 1-sinf o'quvchilarining ota-onalari "bugun bolamiz matematikan 5 oldi" deb g'ururlanishi mumkin. Rasmiy baholar bo'limasa ham o'qituvchilar o'z tashabbusi bilan testlari tayyorlaydi va bolalarni imtihonga boy kelajaka tayyorlaydilar. Finlandiya o'quv-

chilar matabning dastlabki olti yilda hech qachon baholanmaydi. Bu yerdagi o'quvchilar birinchi bo'lib 16 yoshga to'iganlarida mamlakat miqyosida imtihon topshiradi.

3. O'zbekistonda o'quvchi qayer-gadir chiqindisi tashlasa yoki shunga o'xshash holat bo'lsa, ertsasiga ota-onasi ga shikoyat qilinib, chaqiriladi. Finlandiyada o'quvchilar tizimdagи barcha matab ishlarni navbat bilan bajaradi. Finlandiya maktabalari xizmatchilar yo'q, barcha ishlarni o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, ularning mas'uliyat hissi rivojananadi.

4. Finlandiyadagi maktablar o'quvchilarga qulay bo'lishi uchun mo'ljallangan. Sinflarda bajarish va yashash orqali o'rganish modeliga mos joylar mavjud. Binolarning qurilish xususiyatlari o'quvchilarga xuddi uydagidek qulay bo'lishiga imkon beradi deb o'ylashadi. O'zbekistonda p'ellar yillarda davomida buyruq os-tida o'quvchilar nazoratda ushlab turishga uriniladi. "Menga qulox soling" deb baqirib turadigan o'qituvchi oldida qanchalik yaxshi qulox solishlarini bilib bo'lmaydi.

5. O'zbekistonda xususiy maktablarda o'qish soati 8, davlat maktabalarda 5-6 soat. Bu ham yetmaganidek, darsdan so'ng to'garaklar, qo'shimcha darslar, repetitorlar qo'shilib shaxsiy darslar 12-14 soatni qamrab oladi. Finlandiyada esa kunlik dars 4 soatni tashkil qiladi va jahon ta'lim tizimlari reytingini ko'rib chiqsak, sifat va miqdor tushunchalarini naqadar muhim ekanligi oydinlashadi.

6. O'zbekistondagi barcha o'qituvchilar o'zlarini kasbineng eng yuqori cho'qqisida ko'rishadi. Imtiyon natijalari yomon bo'lsa, odatda o'rganishdagi qiyinchiliklar esga olinadi. Yilda bir yoki ma'lum yillarda bir marta malaka oshiriladi. Shu sababli kasbiy malakanli oshirish bo'yicha doimiy ish olib borilmoysi. Finlandiyada esa o'qituvchilar haftasiga kamida 2 soat malaka oshirish kurslarida qatnashishlari kerak.

7. O'zbekistonda xalqimiz orasida "Hech bo'limasa, maktabda o'qituvchi bo'ladi" degan fikr hali ham bor. Ammo

chilar matabning dastlabki kasbi jamiyatning eng muhim kasblaridan biridir! O'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lganlar orasidan tanlanadi. Bakalavr bitiruvchilar orasida o'qituvchilik uchun ariza berganlarning atiga 10 foizi o'qituvchilarni tayyorlash dasturiga qabul qilinadi.

8. O'zbekistonda o'qituvchi bo'lish uchun instituti bitirsangiz kifoya. Finlandiyada o'qituvchi bo'lish uchun uch bosqichli sinovdan o'tish kerak. Ushbu bosqichlar orasida muloqot va dars tu-shuntrish kabi bo'limlar mavjud.

9. Finlandiyada o'qituvchilarning darodam darjasiga juda yaxshi. O'z ishidan boshqa ish bilan shug'ullanib, qo'shimcha darodam olish uchun qo'shimcha dars o'tadigan o'qituvchilar deyarli yo'q.

10. O'zbekistonda o'qituvchilar qancha ko'p uya vazifa bersa, shuncha yaxshi bo'ladi, deb hisoblashadi. Finlandiyadagi o'quvchilarga uva vazifasi berilmaydi.

11. Finlandiyada hech bir o'quvchi ras-somchilik bo'limida o'qib, matematikadan dars qilib o'tirmaydi. Mamlakatimizda o'quvchilar matematikadan zerikishadi va daftarlari rasm chizishadi. Keyin matematika o'qituvchisi bolani rasm darsida ushlaydi va uni matematikadan o'qishga olib boradi.

12. Bizning sinflarda agar barcha o'quvchilar o'z joylarida o'tsira va ovoz-lari chiqmasa, o'sha sinf o'qituvchisini maqtashadi. Finlandiyada agar sinfdan ovoz chiqmasa, o'quvchilar o'z stollarida qatorlashib, hech joyidan turmasdan o'tsira, o'sha sinf o'qituvchisi tekshiruya olinadi. Chunki Finlandiya ta'lim tizimida dars tushuntiridigan o'qituvchi yo'q. Hamma narsani birgalikda bajaradigan mashg'ulotlar mavjud. Shuning uchun ham Finlandiya maktabalariagi sinflarda "aylanib yurma, o'tir joyinga" degan gap deyarli eshitilmaydi.

13. Fin maktab oshxonalarida suv, sut va mevalardan boshqa narsa yo'q. Bizda esa boshqacha. Har tanafusa shokolad bilan shirinliklar iste'mol qiladigan bolalarni ketma-ket olti soat davomida o'tqazishga urinish o'qituvchilar uchun katta sinov! Ehtimol, shuning uchun bizda

tanaffus bo'lishi bilan tez chiqib ketish bo'yicha rekordlar bor...

Xelsinki universitetidan Xanna Simola "Fin mo'jizasi"ning tarixiy va ijtimoiy ildizlari tadjiq qilaran, Finlandiyaning agrar jamiyatindan industrial, undan so'ng postindustrial jamiyatga aylanishi juda tez yuz bergani, ta'lim sohasida ham xuddi shunday jalad rivojanishni ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu davlatda umumiy ta'lim joriy etish 1970-yillardagina boshlangan va u tez, tizimli va hatto totalitar tarzda tatabiq etilgan.

Finlandiya ta'lim tizimidagi islohotlar ning yana bir muhim jihat - 1970-yildan boshlab boshlang'ich matab o'qituvchilari tayyorlash kollej va seminar-yalardan universitetlarning qayta tashkil etilgan ta'lim fakultetlariga ko'chirilgan. Shuningdek matab o'qituvchilar ma-gistr darjasiga ega bo'lishi shartliligi belgilab qo'yilgan. Hozir boshlang'ich maktabda dars berish uchun o'qituvchi ta'lim sohasida magistr darjasiga, o'ra maktabda dars berish uchun esa dars berayotgan fan bo'yicha magistr darjasiga ega bo'lishi lozim. Taqqoslash uchun: ochiq ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda o'qituvchilarning 13 foizi o'rta maxsus yoki tugallanmagan olyi ma'lumotga ega.

Finlandiyaning pedagogika fakultetlarida magistr darjasini olish uchun zarur 300 kredit (bakalavriatda 180 kredit) va magistraturada 120 kreditning kamida 60 tasi qoida tariqasida pedagogika bilan bog'liq fanlariga va o'quv vaqtining 15 foizdan to yarmigacha bo'lgan qisqa pedagogik amaliyotga ajratilgan. Ishlayotgan pedago-goglarning malakasini oshirish mahalliy munitsipalitetlar zimmasida va budgetni qanday sarflash ularning o'ziga havola bo'lgani bois malaka oshirish imkoniyatlari va shakllari hudud va maktabga qarab farq qilishi mumkin. O'zbekistonda malaka oshirish tizimi qoida tariqasida humkum qarorlari bilan tartibga solinadi va barcha uchun bir xil. Faqat yaqindan boshlab o'qituvchilarga o'z malakasini oshirish uchun ta'lim muassasasini tanlash huquqi berildi.

Darhaqiqat ta'lim tizimi, masalan, ta'lim standartlari va o'quv dasturlari, ta'lim muassasalarini, baholash tizimi, tizimda ishllovchi mutaxassislar, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash kabi bir birlan o'zarbo'lgan unsurlardan iborat murakkab bir mexanizm bo'lib, ushbu zanjirning bir yoki bir necha pog'onasini, ularning boshqa unsurlar bilan munosabatini inobatga olmay ko'chirish kutilgan samarani berlasligi mumkin.

Shunday ekan, biz dunyodagi ilg'or tajribalar, xususani, fin ta'limi tizimidagi ibratlari uslublarni o'zlashtirish barobarida bu tizimi milliy mentalitetimiz asosida rivojlanishimiz lozim.

**Shahzoda NEGMATOVA,**  
**O'zbekiston-Finlandiya**  
**pedagogika instituti rektori,**  
**Jo'raqul YAXSHILIKOV,**  
**institut professori.**

## FINLANDIYA TA'LIMI: O'RGANADIGAN JIHATLAR KO'P



chilar matabning dastlabki olti yilda hech qachon baholanmaydi. Bu yerdagi o'quvchilar birinchi bo'lib 16 yoshga to'iganlarida mamlakat miqyosida imtihon topshiradi.

3. O'zbekistonda o'quvchi qayer-gadir chiqindisi tashlasa yoki shunga o'xshash holat bo'lsa, ertsasiga ota-onasi ga shikoyat qilinib, chaqiriladi. Finlandiyada o'quvchilar tizimdagи barcha matab ishlarni navbat bilan bajaradi. Finlandiya maktabalari xizmatchilar yo'q, barcha ishlarni o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, ularning mas'uliyat hissi rivojananadi.

4. Finlandiyadagi maktablar o'quvchilarga qulay bo'lishi uchun mo'ljallangan. Sinflarda bajarish va yashash orqali o'rganish modeliga mos joylar mavjud. Binolarning qurilish xususiyatlari o'quvchilarga xuddi uydagidek qulay bo'lishiga imkon beradi deb o'ylashadi. O'zbekistonda p'ellar yillarda davomida buyruq os-tida o'quvchilar nazoratda ushlab turishga uriniladi. "Menga qulox soling" deb baqirib turadigan o'qituvchi oldida qanchalik yaxshi qulox solishlarini bilib bo'lmaydi.

5. O'zbekistonda xususiy maktablarda o'qish soati 8, davlat maktabalarda 5-6 soat. Bu ham yetmaganidek, darsdan so'ng to'garaklar, qo'shimcha darslar, repetitorlar qo'shilib shaxsiy darslar 12-14 soatni qamrab oladi. Finlandiyada esa kunlik dars 4 soatni tashkil qiladi va jahon ta'lim tizimlari reytingini ko'rib chiqsak, sifat va miqdor tushunchalarini naqadar muhim ekanligi oydinlashadi.

6. O'zbekistondagi barcha o'qituvchilar o'zlarini kasbineng eng yuqori cho'qqisida ko'rishadi. Imtiyon natijalari yomon bo'lsa, odatda o'rganishdagi qiyinchiliklar esga olinadi. Yilda bir yoki ma'lum yillarda bir marta malaka oshiriladi. Shu sababli kasbiy malakanli oshirish bo'yicha doimiy ish olib borilmoysi. Finlandiyada esa o'qituvchilar haftasiga kamida 2 soat malaka oshirish kurslarida qatnashishlari kerak.

7. O'zbekistonda xalqimiz orasida "Hech bo'limasa, maktabda o'qituvchi bo'ladi" degan fikr hali ham bor. Ammo

chilar matabning dastlabki kasbi jamiyatning eng muhim kasblaridan biridir! O'qituvchilar magistr darjasiga ega bo'lganlar orasidan tanlanadi. Bakalavr bitiruvchilar orasida o'qituvchilik uchun ariza berganlarning atiga 10 foizi o'qituvchilarni tayyorlash dasturiga qabul qilinadi.

8. O'zbekistonda o'qituvchi bo'lish uchun instituti bitirsangiz kifoya. Finlandiyada o'qituvchi bo'lish uchun uch bosqichli sinovdan o'tish kerak. Ushbu bosqichlar orasida muloqot mulokatni imtihon etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Mansurov Masudga (2012-yil 12-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Jo'rayev Kamoliddin Muhibbiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Sobirova Bashorat Yuldashevninga (2017-yil 7-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhid-

dovich notarial idorasida marhum Babayev Solega (2002-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Asrorov Maxim Asrorovichga (2022-yil 5-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Mammatkulov Tursun

Muradovichga (2012-yil 18-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarcand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.**

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Amon

# Tashvishlardan halovat izlab

davlat va jamoat arbobi O'limas Mahmatmurodov siyratiga chizgilar

**Bu insonning nomini yurtimzda hurmat bilan tilga olishadi, desam xato qilmayman. Shu sababli bunday fidoyilar hayoti to'g'risida ko'proq bishimiz, ularning Vatan oldidagi xizmatlarini eslashimiz hamda ibratli tajribalarini yosh avlodga yetkazishimiz lozim degan fikrga keldim.**

O'limas Mahmatmurodov Urgut tumanining O'rmas qishlog'iда 1941-yil 22-mayda dehqon oilasida tug'ilgan. Onasi Sanobar aya 1969-yilda 53 yoshida, otasi Mahmatmurod Olimov 1981-yilda 78 yoshida vafot etgan.

O'limas aka o'rta ta'lif maktabini 1958-yilda tugatgan va tumandagi jamao xo'jaligida hisobchi sifatida o'z mehnat faoliyatini boshlagan. 1962-yilda Samarqand gidromeliorasiya texnikumini turgatib, tuman ishlabi chiqarish uchastkasining ichki xo'jalik tarmog'iда muhandis bo'lib ishlagan.

Harbiy xizmatni o'tab qaytg'an g'ayratli yigit 1964-1966-yillarda Samarqand tumani suv xo'jaligida gidrotexnik, 1965-yil martdan sentabrgacha Samarqand tumani suv xo'jaligida katta muhandis bo'lib ishlagan. Keyin bu tashkilotchi yigitni Urgut tumani partiya komiteti tashkiliy bo'limiga yo'riqchi qilib olishdi. Toshkent Oliy partiya maktabini (1967-1971) bitirgach ham shu ishini davom ettirdi.


O' Mahmatmurodov 2-3 yil viloyat partiya qo'mitasida mas'ul lavozimida tajriba orttirgach, awaliga tuman qishloq xo'jaligi bosh-qarmasi boshlig'i, keyin esa tuman partiya qo'mitasining ikkinchi kotibi bo'lib ishladi. Bu jarayonda mohir rahbar zamona ziylisi sifatida tilga tushdi. Mustaqillikkacha va undan keyin 12 yil davomida Urgutda birinchи rahbar bo'ldi. U kishi qator yillar davomida viloyat ijoboq'mi raisining o'rinosbas, agrosanoat birlashmasi boshlig'i, viloyat xalq nazorati qo'mitasini raisi bo'lib ishladi. Pensiyaga chiqgach ham boy tajribasi tufayli 7 yil dehqon-fermer xo'jaliklari uyushmasi viloyat rahbari bo'ldi.

Gulsina yangi bilan besh o'g'il – Erkin, Alisher, Anvar, Otabek va Azizbekni zamonga munosib qilib tarbiyaladilar.

O'limas Mahmatmurodov agrosanoat kompleksiga rahbarlik qilgan yillarda u amalga oshirgan salmoqli ishlarni ko'pchilik biliadi. Mazkur sohaga rahbarlik qilgan yillarda viloyat davlatgacha yiliga 2 million donadan ortiq qorako'l teri, 800 ming tonnadan ziyod Paxta xomashosi topshirgan. O'limas Mahmatmurodov viloyatda mazkur mas'ul lavozimni egallaganda bu sohada talay mammlakolar to'plangan bo'lib, ularni zudlik bilan hal qilish talab qilinardi. U kunni kun, tunni tun demasdan, sidqdildan mehnat qildi. Viloyatda qishloq xo'jaligini rivojlantrish, yerlarni sug'orish, suv manbalari – daryolar, yirkariqlarning holatini yaxshilash va tozalashga oid dasturlarni amalga oshirdi. Faoliyatining dastlabki kezlarida o'ziga topshirilgan sohanai sinchiklab o'rganish uchun kuchini amayadi, qishloqlarni piyoda kezib, aholi bilan yaqindan tanishdi, turli soha vakillari bilan suhbatlashdi, boy tajribaga ega oqsoqollar va malakali paxtakor mutaxassislar bilan maslahatlashdi. "Nuroniy" jamg'armasi viloyat bo'limining raisi H.Normurodov (joyi jannatdan bo'lsin!) o'z do'sti to'g'risida shunday fikrlarni bildirgandi:

"Men O'limas Mahmatmurodov bilan uzoq yillik do'stligim to'g'risida juda samimi yaxshi so'zlarini ayta olaman, chunki yelka-ma-elka ishlari ekanmiz, yaqin qo'shnilar kabi yashaganman, oilaviy do'st bo'lganmiz, shuningdek mazkur yillar mobaynida bizlар yana ham o'zaro yaqinlashdik va bir-biri-mizni yaxshiroq bilib oldik."

O'limas Mahmatmurodov Oliy partiya maktabini tugatgandan keyin Urgut tumanining ikkinchi rahbari darajasiga ko'tarildi. U mazkur lavozimda zamoniav rahbar uchun zarur teran bilimlari, katta tashkilotchilik qobiliyati va boshqa fazilatlarini namoyon qilidi. Bu insonning fidokorona va halol xizmati respublikamiz rahbariyati nazariga tushdi. U ikki marta Respublika Oliy Majlisi deputati etib saylangan, yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Uning Urgut tumani tajribasi faoliyati davomida ulkan bundaykorlik ishlarni amalga oshirdi. Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish, qishloqlarning ijtimoiy infrastrukturasini, yangi korxonalar va madaniy-maishiy inshootlar qurilishiga ahamiyat berdi. Urgut tumani o'sha yillarda ko'plab rahbarlar uchun hayotning deyarli barcha sohalarida ilg'or tajriba maktabiga aylandi. Tumanga mamlakatning barcha mintaqalaridan rahbarlar va boshqa mas'ul shaxslar kelar, qo'iga kiritilgan yutuqlarni o'z ko'zlarini bilan ko'rib, ularni joylarda amalga oshirar edilar".



Men O'limas aka bilan 1970-yillarda, universitetda o'qib yurgan davrimda tanishganman, ukasi bilan parallel guruhda tashsil oldik. O'sha davrda u kishi Samarqand viloyati partiya qo'mitasida tashkiliy bo'lim yo'riqchisi edi. Uning tarjimai holi va faoliyati naqadar ulug' inson ekanini yorqin aks ettiradi, binobarin mamlakatda ko'plab odamlar undan haqli ravishda ibrat olgan. O'limas Mahmatmurodov ilmi teran, aqil o'tkir, dilkash va chinakam notiq inson edi. 1970-yillarda uning hayotida asta-sekin to'la ma'nodagi yuksalish boshlandi. Men olyigohni tugatganimda O'limas Mahmatmurodov Urgut tumani partiya qo'mitasining ikkinchi kotibi lavozimida faoliyat yuritardi.

Bu lavozimda uning tashkilotchilik qobiliyati to'la namoyon bo'ldi. U jamaoa bilan yaxshi til topishar, har bir odamning fikriga qulog tutar, foydalı maslahatlar berar edi. Odamlar tuman partiya qo'mitasining ikkinchi kotibi bilan emas, balki ayan u bilan suhbatlashishga intilayotganide taassurat paydo bo'lardi. Birinchи rahbar deyarli barcha masalani hal qilar, hamisha yangi g'oyalarni ilgari surar va ishga jidoy yondashardi.

U xiyobon tashkil qildi, bu xiyobon "Bog'i Usmon" deb nomlandi. Har bir korxona va xo'jalik bu xiyobonda o'z mehnatkashlarining dam oshlarini tashkil qilish uchun muyyan joyga ega edi. Bu yerda dala shiyonlari va turli chog'roq, lekin juda quylay xonalari bor edi.

O'limas Mahmatmurodovning omilkor rahbar ekanligi mamlakat rahbariyati nazariga tushdi va engilida viloyat ijobo qo'mitasida xizmat qila boshlandi. Bu yerda ko'plab qishloq xo'jaligi muammolarini hal qilish uchun salohiyatlari yetakchilar guruhi ni shakkantirdi.

Men keyinchalik mamlakatning turli joylarida xizmatda bo'ldim, qaytib kelganimda ham O'limas aka Urgut tumani partiya qo'mitasining ikkinchi kotibi edi. Chunki Urgut tumani rivojlantrishni faqat unga ishonib topshirishgan. Haqiqatdan ham oradan ko'p o'tmasdan, tumanning shuhrati ko'plab ko'sratkichilar bo'yicha butun mamlakatga yoyildi. Xususan, Moskva, Leningrad, Kiyev, Qozon kabi yirik shaharlardan vakillar tajribalarni o'rganish uchun Urgutda keldi.

O'limas Mahmatmurodovning omilkor tajribalarni o'rganish uchun Urgutda keldi. U mazkur lavozimda zamoniav rahbar uchun zarur teran bilimlari, katta tashkilotchilik qobiliyati va boshqa fazilatlarini namoyon qilidi. Bu insonning fidokorona va halol xizmati respublikamiz rahbariyati nazariga tushdi. U ikki marta Respublika Oliy Majlisi deputati etib saylangan, yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Uning Urgut tumani tajribasi faoliyati davomida ulkan bundaykorlik ishlarni amalga oshirdi. Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish, qishloqlarning ijtimoiy infrastrukturasini, yangi korxonalar va madaniy-maishiy inshootlar qurilishiga ahamiyat berdi. Urgut tumani o'sha yillarda ko'plab rahbarlar uchun hayotning deyarli barcha sohalarida ilg'or tajriba maktabiga aylandi. Tumanga mamlakatning barcha mintaqalaridan rahbarlar va boshqa mas'ul shaxslar kelar, qo'iga kiritilgan yutuqlarni o'z ko'zlarini bilan ko'rib, ularni joylarda amalga oshirar edilar".

O'limas Mahmatmurodovning xo'jalik faoliyati mamlakat rahbariyati tomonidan e'tirof qilindi va u viloyat xalq nazorati qo'mitasining raisi etib tayinlandi. Bu o'sha davragi juda mas'ul lavozimlardan edi. O'limas Mahmatmurodov nazoratni oqilona tashkil qildi, bu viloyatdagisi ko'plab qo'riliklar va noto'g'ri qarorlar qabul qilinishining oldini oldi. Uning rahbarligi ostida shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash ham yo'iga qo'yildi. Bu uzum ko'p yetishiriladi-

gan viloyat uchun muhim ahamiyatiga ega bo'ldi. O'limas Mahmatmurodov viloyatda ko'plab konserva zavodlari qurilishi uchun zamin yaratdi, natijada aholi uzundan-uzun navbatda turgan holda o'z mahsulotlarini bu zavodlarga topshira boshlandi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qabulini oqilona tashkil qilish va qayta ishslash ham mamlakat rahbariyati tomonidan e'tirof qilindi. Natijada bu inson o'z hamkasblari orasida yana ham katta obro'-e'tiborga ega bo'ldi.

Qayta qurish yillarda mamlakatimizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Samarqand viloyatida ham qiyinchiliklar boshlandi. Bu ko'p jihatdan davlat organlaridagi nomuvofiqlik va qarama-qarshi qarorlar, shuningdek, ichki partiya kurashi bilan bog'liq edi. Bu o'zgarishlar natijasida O'limas Mahmatmurodov yana Urgut tumani partiya qo'mitasining birinchи kotibi lavozimiga tayinlandi va u yerda mehnat jamaosi munosabatlari to'g'ri yo'lg'a qo'yishda o'z iste'dodini namoyon etdi. U O'zbekiston SSR Oliy Kengashi deputati etib saylandi. Turli lavozimlarda muvaffaqiyati faoliyati tufayli O'limas Mahmatmurodov ikki marta mustaqil O'zbekiston parlamenti deputati etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so'ng Urgut tumani qiyinchiliklarga duch keldi va ularni hal etishda O'limas Mahmatmurodov jonkuyarlik ko'rsatdi. Uning bu yutuqlarini O'zbekiston Respublikasining birinchи Prezidenti I.Karimov e'tirof etdi. Mamlakat rahbariyati bilan birlgiligidagi sa'y-harakatlar natijasida tuman markazi qayta qurildi, arxitektura mahalliy tabbiy o'ziga xosilishka ega bo'ldi, shu jumladan, mashhur telemirora hisobiga uyg'un rivojlana boshlandi. Bu fidoyiligi uchun unga "O'zbekistonda xizmat ko'sratgan madaniyat xodimi" unvon berildi.

O'limas Mahmatmurodovning ko'p qirrali bilimi, beqiyos irodasi va qat'iyati meni doim hayratga solgan. U o'zi va boshqalarga nisbatan nihoyatda talabchan va qattiqqo'l edi. Qayerda ishlamasin, yuqori mehnat ko'rsatkichlari qo'lg'a kiritish va nihoyatda muhim natijalarga erishish edi. U tinimsiz mehnat qilar ekan, boshqalarni ham katta ishlarga ilhomlantirardi.

O'limas Mahmatmurodov hayot bo'lganida bu yil 83 yoshini qarshilagan bo'ldi. U boy hayotiy tajribaga ega obro'-li oqsoqol bo'lib, o'z tajribasi va ko'nikmalarni yoshlar bilan bajonidil baham ko'rardi. Shu sababli ukalari Shavkat, Tuyg'un, Komil va farzandalari ham jamiyatda u kishi kabi xalq xizmatida. Dilshod akasi singari umrining oxirigacha davlat idoralarida faoliyat ko'rsatdi.

O'limas Mahmatmurodovning hayoti ona-Vatan va xalqqa xizmat qilishning buyuk namunasi desam, xato qilmayman. Negaki, hamisha kelajakni ko'zlab yashadi, halol mehnati va siyosiy faoliyati bilan mamlakatimiz ravnaqiga salmoqli hissa qo'shish uchun intildi.

Uning ezgu fazilatlari, mehnat yutuqlari to'g'risida hikoyalar bo'stiramiz, shu jumladan, davr rahbarlari uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Kamina ustoz ishini munosib davom ettilayotgan oиласи – bolalari va nabiralariga baxtu saodat, ijodiy yutuqlari va mustahkam sog'liq tilayman!

O'zbekistonda xizmat ko'sratgan madaniyat xodimi O'limas Mahmatmurodovning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib baholangan. U bir qator mukofotlar sohibi edi.

**Ismat KO'CHIYEV,  
O'zbekiston va Belarus  
Yozuvchilar uyushmalari  
a'zosi.**



## Ota iztirobi

**Shoqul boboning suyagi mehnatda qotgan. Pensiyaga chiqqunicha xo'jalik yerlarda suv kechib, g'o'za sug'ordi, ot-aravada dalaga go'ng chiqarib, chim tashidi. Dala ishlari dan ortib, tomorqasini ham gulday qilib qo'yardi. Shig'ilshig'il uzum, olma, anor, sabzi, piyoz yil bo'y ro'zg'orni ta'minlardi. Endi boboning avvalgi shashti yo'q - beli, oyoqlari qaqshab og'riydi. Ikki ketmon ursa, yuragi temirching bosqonidab gupillab, hansirab qoladi. "Xudodan so'rab olgan yolg'iz farzandim qaraganimda suyanchiq bo'ladi" deb o'ylagandi, o'g'il noqobil bo'lib chiqdi. Tikka kosov, sanqi.**

Kelib, tomorqa haydatardi.

- Ota, buncha besabrsiz, o'zim bugun haydidi, u-bu narsa ekmoqchi edim, - to'ng'illadi Ramiz.

- Shunaqami? Unda ketmonni olib kel, pomidor ko'chat, sabzavot urug'i olib kelib qo'yiganman, ekip tashla. Qani, ko'rakil? Agar shu niyatning bo'lganida tomorqa egasi ko'chib ketganday xarob bo'lib yotmasdi.

- Ota, siz urimang, men hozir birrov guzarga chiqip kelaman-u, o'zim ekip tashlayman. Mana, ko'rasisz, gapim bitta, - deb ko'chaga oshiqdi Ramiz.

"Xayriyat, o'g'limga aql kiribdi" deya Shoqul bobo xotirjam tortib, Ramizni kutib o'tirdi. Bir saat o'tdi – yo'q, tush bo'ldi – yo'q! "Hali senga kumin goldimi?" deb o'rnidan turdi Shoqul bobo: "Unga ishonsam, tomorqa bu yil bekor yotadi".

Bobo yerni tekislab, ekin ekishga kirishadi. Ramizdan hamon darak bo'lmadi. Qaddini ko'tarib, o'ir tin oldi, ketmon dastasiga suyanib, yaktagini yengi bilan peshona terini artdi.

Bexosdan chap ko'ksi qattiq sanchib, ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. Ko'ksini changallagancha gurur etib yiqildi.

- Voy o'limasam, voy, hoy chol, sizga nima bo'ldi?

Separator haydayotgan Sora momo choliga qarab yugurdi.

Uning oqichqirig'i eshitgan qo'shnisi Shavkat darchadan yugurib keldi.

- Nima bo'ldi bobo, ko'zingizni oching?!

U cho'ntagidan telefon chiqarib, tez yordamga go'ng'iroq qildi.

Do'xtir boboning nafasini tekshirib ko'rdi:

- Miyasiga qon qayilganga o'xshaydi, - deb hamshiraga ukol qilishni buyurdi. - Hozircha o'rnidan qo'z'atmay turaylik, xushiga kelgach, shifoxonaga olib ketamiz.

Eshik oldida turgan tez yordam mashinasini ko'rgan shirakayf Ramiz ichkariga yugurdi.

- Ota! Nima bo'ldi?

Sal hushiga kelgan bobo uning ovozini eshitib, ko'zlarini ochdi. Ramizga qarab g'udrandi.

Ammo nima deganini anglab bo'limasdi. Uning qon bosimi oshib, miyasiqay qayilgan, gapiga tushunib bo'limasdi. Ramiz haykalday qotib turar, otasining shu kuga tushishiga o'zi sababchi ekanligini anglagan edi.

**Tog'aymurod SHOMURODOV.**

**Kitob taqdimoti**



## Oltin sabr gulastasi

**Jomboy tumanidagi 46-umumta'lim maktabida O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, yo-zuvchi va publisist Sabot Norbo'tayevanining "Oltin sabr" va "Men gazetadanman..." kitoblari taqdimoti o'tkazildi.**

- S.Norbo'tayeva asli Jomboydan, ilk mehnat va ijod faoliyatini tumanda chop et